

JAHON VA O‘ZBEK ADABIYOTI UYG‘UNLIGI PUSHKIN VA OYBEK

Olimjonova Gulshoda Olimjon qizi

University of business and science

Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Kunduzgi ta’lim 23-01-guruh talabasi

+998 93 073 70 57

Annotatsiya: *Mazkur tahlilda rus adabiyotining yirik namoyandasi Aleksandr Sergeyevich Pushkin va o‘zbek adabiyotining buyuk vakili Oybek ijodi solishtirma o‘rganiladi. Ularning asarlarida inson ruhiyati, muhabbat, vatanparvarlik, erkinlik va jamiyat muammolari qanday ifodalangani tahlil qilinadi. Ikki adibning badiiy mahorati, uslubi va milliy adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Oybek, o‘zbek adabiyoti, she‘riyat, nasr, adabiy meros, ma‘no va mazmun, insonparvarlik, qalb va his-tuyg‘u, so‘z qudrati, adabiy haqiqat, milliy qadriyatlar, shoir mahorati, davr talqini.*

Аннотация: *В данном исследовании проводится сравнительный анализ творчества выдающегося представителя русской литературы Александра Сергеевича Пушкина и великого представителя узбекской литературы Ойбека. Рассматривается отражение в их произведениях внутреннего мира человека, тем любви, патриотизма, свободы и социальных проблем общества. Освещаются художественное мастерство, стиль писателей и их вклад в развитие национальной литературы.*

Ключевые слова: *Ойбек, узбекская литература, поэзия, проза, литературное наследие, смысл и содержание, гуманизм, душа и чувства, сила слова, литературная истина, национальные ценности, мастерство поэта, интерпретация эпохи.*

Abstract: *This study presents a comparative analysis of the works of Alexander Sergeyevich Pushkin, a prominent representative of Russian literature, and Oybek, a great representative of Uzbek literature. The research examines how the themes of the human inner world, love, patriotism, freedom, and social issues are reflected in their works. It also highlights the writers’ artistic mastery, literary style, and their contribution to the development of national literature.*

Keywords: *Oybek, Uzbek literature, poetry, prose, literary heritage, meaning and content, humanism, soul and emotion, power of words, literary truth, national values, poetic mastery, interpretation of the era.*

Oybek she‘riyati sirli mo‘jizaga boy g‘oyat zalvor tug‘yonlar jo bir g‘alayon, oy shu‘lasida yorug‘ hislar berkingan qo‘shiqqa o‘xshaydi. Men bu she‘rlarni o‘qiganimda vujudimda shunday bir hayrat va dard sezamanki, bu dunyoda yashashdan maqsadim

olayotgan huzurlarimning eng go‘zali va yoqimlisi bo‘lib tuyiladi. Oybek tunni sevadi ismi butun ijodga yarashliqlik shoir huddi oydek to‘lib, go‘yoki tun uzra uni sergak kuzatadi. Tun haqidagi she‘rlarni ajib fazilati shuki shoir tunni sukut va uyqu bilan emas bedorlik va harakat bilan bog‘laydi. U bedor va harakatchang tunda quyosh yuzini ko‘radi. Yuksak chinorlar uchi quyosh sochlari bilan sekin o‘ynashi ham yaproqlar betida mudragan oy nurlari ham uchgan yaproq bahorning yodi yuragimizdan o‘tarkan bejiz ketmaydi. Oybek she‘rlaridagi tabiat, kecha, kunduz, maysa xuddi inson yengil nafas oladi nafasimizga nafas qo‘shadi. Namatak she‘ridan bir parcha ko‘rsak,

Nafis chayqaladi bir tup na‘matak

Yuksakda, shamolning belanchagida.

Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul,

Viqor-la o‘shshaygan qoya labida

Oybek she‘rlari ta‘sviriy sa‘natdek cheksiz oxiri yo‘q tengsizdir.

Jahondagi hech bir xalq ma‘naviyati va adabiyoti faqat o‘z doirasida chegaralanib qolmaydi. Chegaralanib qoladigan bo‘lsa, o‘ziga yomon! Milliy mahdudlik hech kimga foyda keltirgan emas. O‘z milliy zaminida qat‘iy turgan o‘zbek ma‘naviyati — azaldan ochiq ma‘naviyat. Ma‘naviy hududimizga bizni ruhiy jihatdan boyitishga xizmat qiladigan har bir ulug‘ siymoni marhamat, deb kutib olamiz.

Biz sharqmiz, ammo g‘arb badiiy ruhiy olamini o‘zlashtirgan, o‘sha olamning shaffof suvlarini simirgan, shundan nafu safo topgan xalqmiz. Shoirimiz tili bilan aytganda, Navoiy sharafi muqaddas yashagan o‘zbek xonadonidan, o‘zbek ongidan Homer, Dante, Shekspir, Gyote, Bayronlar ham makon topgan. Lekin badiiyat dahosi Aleksandr Pushkinning qadri ayrichadir. U bizga bir qadar yaqin, bir qadar qadrdon.

Daholar siyosiy maqsadlar uchun yashamaydilar. Shu sababli Pushkin dahosi ham shovinizm kabi illatdan allaqancha yuksaklikda makon topadi. Daholar o‘z azaliy tabiatiga ko‘ra insoniy erk va milliy ozodlikka xizmat qiladilar. Pushkinning ham armoni, ideali ozodlik edi. U erkinlik va ozodlik kuychisidir.

Pushkin she‘riyati har jihatdan — shaklan, ruhan va ma‘nan sharq she‘riyatiga yaqin. Uning ayrim to‘rtliklari teranligi, ma‘nosining chuqurligi, falsafiyligi bilan bizning ruboiylarni eslatib turadi.

Октябрь уж наступил — уж роща отряхает

Последние листы с нагих своих ветвей;

Дохнул осенний хлад — дорога промерзает.

Журча еще бежит за мельницу ручей,

Uning she‘riyati sharq ruhi bilan chuqur sug‘orilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hassos shoirimiz Usmon Nosir ona tilimizga o‘giran “Bog‘chasaroy fontani” dostoni mazmun-mohiyati bilan sharqdan olingan. Doston sahnida ikki kuch — sharqona voqelik va g‘arbona lirik marom baqamti kelib, yaxlit bir butunlik hosil qilgan. Pushkin bu turkumda bobolari ruhi bilan uchrashganini his qilgan, erkin nafas olgan. Shoiridir

Но пруд уже застыл; сосед мой поспешает
В отъезжие поля с охотою своей,
И страждут озими от бешеной забавы,
И будит лай собак уснувшие дубравы.

She'riy vazn haqida gap ketganda, tadqiqotchilar ko'pincha bir narsani unutishadi, ya'ni, uni quruq shakl, deb hisoblashadi. Vazn avvalo ohang degani. Ohang esa odamning, shoirning qalbidan chiqadi, qolaversa, qoni-jonidan tug'iladi. Ma'lumki, Pushkin tomirlarida, jumladan, arab qoni oqqan. Uning ona tomonidan katta bobosi buyuk Petrning tutingan o'g'li asli habashistonlik Ibrohim Hannibal ediki, bu narsa Pushkin she'riyatining ohangiga ham ta'sir o'tkazmay qolmagandir.

Pushkin g'oyat keng qirrali daho edi. U buyuk lirik shoir bo'lishi bilan birga dramaturgiya va proza sohasida ham ulkan hamda bebaho meros qoldirdi. “Boris Godunov” rus adabiyotida ilk dramatik tragediya sifatida tan olingan.

Uning tragediyalari — “Tosh mehmon”, “Motsart va Salyeri”, “Xasis Ritsar”, “O'lat chog'idagi bazm” kichik voqea va ixcham so'z orqali ulkan ijtimoiy-falsafiy muammolarni badiiy ifodalash mumkinligiga yorqin misoldir. “Kapitan Qizi”, “Dubrovskiy”, “Belkin qissalari” kabi asarlari rus nasrining keyingi taraqqiyotida ulkan rol o'ynadi. Gogol, Dostoyevskiy, Lev Tolstoy kabi jahoniy adiblarning adabiyot maydoniga chiqishida turtki va ko'prik vazifasini o'tadi.

Bizning Turkistonda Pushkin ijodiga qiziqish ancha ilgari boshlangan. Bu jabhada jadidlarimiz, ayniqsa jonbozlik ko'rsatishgan. Pushkinning adabiy ertak janrida yozilgan asarlari sharqona fikrlashi, sodda va qiziqarli bayoni jihatidan xalqimizga yaqin bo'lganidan, dastlab shu ertaklarning ayrimlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Keyinchalik Pushkinni tarjima qilish ishi izchil yo'lga qo'yildi. Bu, bir jihatdan, o'sha davr siyosatiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, eng muhimi, yangi davr o'zbek adabiyoti o'z rivojida Pushkinning badiiy tajribalariga ehtiyoj sezganidan ham edi. Pushkinning qator asarlari o'zbek tiliga bir emas, bir necha bor qayta-qayta tarjima qilindi. “Yevgeniy Onegin” she'riy romanini 30-yillarda Oybek domla tilimizga o'girdi. Tarjima kitobxon va mutaxassislar tomonidan yuksak baholangan edi. 80-yillarga kelib bu asarni shoir Mirza Kenjabek o'zbek tiliga yana bir bor tarjima qildi. Bu yaxshi. Zero buyuk asarlar tilimizga qayta-qayta o'girilishi qo'llab-quvvatlanadigan hodisadir. Aytaylik, Pushkinning mashhur “Haykal” she'rining turli shoirlar tomonidan o'nga yaqin tarjimasi bo'lib, ularning har biri — bu ulug' she'rning boshqa tarjimada ko'rilmagan yangi qirrasini ko'rsatishi bilan qimmatlidir.

Pushkinning bir asarini yaxshilab tarjima qilish she'riy jihatdan bir pog'ona o'sish demaqqdir, degan edi Hamid Olimjon. Pushkin asarlarini o'zbek kitobxoniga yuksak saviyada yetkazish ishida bir necha avlod shoir va yozuvchilar ishtirok etdilar. Ular juda ko'p, lekin shu o'rinda Cho'lpon, Oybek, Usmon Nosir va Mirtemirlar nomini alohida hurmat va ehtirom bilan tilga olishga o'zimni burchli, deb bilaman. Mirtemir domla o'giran birgina “Alvido,

zo‘r qudrat, asov g‘alayon” satrining o‘ziyoq Pushkin she‘ri o‘zbek tiliga qanchalik singishib, o‘zlashib ketganiga go‘zal misoldir.

Xalqimizni olijanob, go‘zal g‘oyalari, ezgu hislariga oshno qilgani uchun biz Pushkindan minnatdormiz. Lekin buyuk Pushkin ham o‘zbek xalqidan minnatdor bo‘lgan bo‘sa kerak. Uni xuddi o‘z farzandiday bag‘riga olgani, ardoqlagani uchun!, Pushkin va Oybek ijodi o‘rtasida ma‘naviy va badiiy bog‘liqlik mavjud. Pushkin rus adabiyotida realizm asoschilaridan biri sifatida inson qalbi, erkinlik va adolat g‘oyalarini chuqur yoritgan. Oybek esa o‘zbek adabiyotida shu an‘analarni milliy ruh bilan boyitib, insonparvarlik, vatanparvarlik va ruhiy kechinmalarni yuksak badiiy darajada ifodalagan. Oybek Pushkin ijodidan ilhom olib, tarjimalar orqali o‘zbek adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Har ikki adib ijodida inson va jamiyat masalalari markaziy o‘rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pushkin, A. S. Tanlangan asarlar.
2. Oybek. She‘rlar va dostonlar.
3. Oybek. Adabiy-tanqidiy maqolalar.
4. O‘zbek adabiyoti tarixi.
5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:roLk4NBRz8UC
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:qjMakFHDy7sC
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zatCspcAAAAJ&sortby=title&citation_for_view=zatCspcAAAAJ:2osOgNQ5qMEC